BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARIDA INKLYUZIV TA’LIMNI AMALGA OSHIRISHGA KASBIY-PSIXOLOGIK TAYYORGARLIKNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI

N.M.Toyirova[1]

1. Osiyo xalqaro universiteti o‘qituvchisi

Mas'ul muallif: Toyirova Nazokat Moxirovna, Osiyo xalqaro universiteti o‘qituvchisi.

Received: 29 Oktabr 2026
Accepted: 03 Noyabr 2026
Published: 08 Noyabr 2026

Copyright: © 2026 by the author(s). Licensee Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi.

Iqtibos uchun: Toyirova, N. M. BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARIDA INKLYUZIV TA’LIMNI AMALGA OSHIRISHGA KASBIY-PSIXOLOGIK TAYYORGARLIKNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI / N. M. Toyirova // Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi. — 2026. — T. 11, № 1. — B. 225–229.

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining inklyuziv ta’limni amalga oshirishga tayyorligini rivojlantirishning mavjud holati, mazkur jarayonning pedagogik, psixologik va metodik jihatlari tahlil qilingan. Inklyuziv ta’limni rivojlantirishning davlat siyosati darajasidagi ustuvor yo‘nalishlari, uning huquqiy-me’yoriy asoslari hamda boshlang‘ich ta’lim tizimidagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, alohida ta’lim ehtiyojlariga ega o‘quvchilarning individual xususiyatlari, ularni umumiy ta’lim jarayoniga jalb etishda boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy, psixologik va metodik tayyorgarligiga qo‘yiladigan talablar ochib berilgan. Maqolada eshitish, ko‘rish, nutq, tayanch-harakat apparati bilan bog‘liq nuqsonlari, ruhiy rivojlanishida sustlik, autistik spektr buzilishlari va boshqa alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bolalar bilan ishlashda qo‘llaniladigan pedagogik yondashuvlar tahlil qilingan. Bo‘lajak o‘qituvchilarning nazariy bilimlari va amaliy ko‘nikmalari o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlash zarurati asoslangan. Bundan tashqari, pedagogik ta’lim jarayonida maxsus pedagogika, psixologiya, logopediya, korreksion pedagogika va assistiv texnologiyalar bo‘yicha bilimlarni integratsiyalash, keys-stadi, trening, simulyatsion mashg‘ulotlar va pedagogik vaziyatlarni modellashtirishdan foydalanishning metodik imkoniyatlari ko‘rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta’lim, boshlang‘ich ta’lim, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, kasbiy tayyorgarlik, alohida ta’lim ehtiyojlari, individual yondashuv, maxsus pedagogika, psixologik tayyorgarlik, metodik kompetensiya, ta’lim muhiti, pedagogik moslashtirish.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ГОТОВНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ К РЕАЛИЗАЦИИ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. В статье анализируется современное состояние развития готовности будущих учителей начальных классов к реализации инклюзивного образования, рассматриваются педагогические, психологические и методические аспекты данного процесса. Освещаются приоритетные направления развития инклюзивного образования на уровне государственной политики, его нормативно-правовые основы и значение в системе начального образования. Раскрываются индивидуальные особенности обучающихся с особыми образовательными потребностями, а также требования к профессиональной, психологической и методической подготовке будущих учителей начальных классов. Особое внимание уделяется педагогическим подходам к работе с детьми, имеющими нарушения слуха, зрения, речи, опорно-двигательного аппарата, задержку психического развития, расстройства аутистического спектра и другие особые образовательные потребности. Обосновывается необходимость обеспечения взаимосвязи теоретических знаний и практических умений в процессе профессиональной подготовки будущих педагогов. Рассматриваются методические возможности интеграции знаний по специальной педагогике, психологии, логопедии, коррекционной педагогике и ассистивным технологиям посредством кейс-метода, тренингов, моделирования педагогических ситуаций и симуляционных занятий.

Ключевые слова: инклюзивное образование, начальное образование, будущий учитель начальных классов, профессиональная готовность, особые образовательные потребности, индивидуальный подход, специальная педагогика, психологическая готовность, методическая компетентность, образовательная среда, педагогическая адаптация.

THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING THE PROFESSIONAL AND PSYCHOLOGICAL READINESS OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS TO IMPLEMENT INCLUSIVE EDUCATION

Abstract. This article analyzes the current state of developing future primary school teachers’ readiness to implement inclusive education, focusing on its pedagogical, psychological and methodological aspects. It examines the priority directions of inclusive education as a component of state policy, its legal and regulatory foundations, and its

significance in the primary education system. The article also discusses the individual characteristics of learners with special educational needs and the professional, psychological and methodological requirements for primary school teachers involved in inclusive educational processes. Particular attention is paid to pedagogical approaches used when working with children with hearing, visual, speech and physical disabilities, developmental delays, autism spectrum disorders and other special educational needs. The necessity of establishing a strong relationship between theoretical knowledge and practical skills in the professional preparation of future teachers is substantiated. Furthermore, the article highlights the methodological potential of integrating knowledge of special education, psychology, speech therapy, corrective pedagogy and assistive technologies into teacher education through case studies, training sessions, simulated lessons and pedagogical situation modelling.

Keywords: inclusive education, primary education, future primary school teacher, professional readiness, special educational needs, individual approach, special education, psychological readiness, methodological competence, educational environment, pedagogical adaptation.

Kirish. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining inklyuziv ta’limni amalga oshirishga tayyorligini rivojlantirish masalasi bugungi pedagogik ta’lim tizimining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki boshlang‘ich ta’lim bosqichi bolaning maktab hayotiga moslashuvi, o‘quv faoliyatiga kirishishi, tengdoshlari bilan muloqotga kirishishi, o‘z imkoniyatlarini namoyon qilishi va keyingi ta’lim bosqichlariga tayyorlanishida asosiy poydevor vazifasini bajaradi. Ayniqsa, alohida ta’lim ehtiyojiga ega bo‘lgan o‘quvchilar uchun boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy mahorati, metodik tayyorgarligi, psixologik sezgirligi, kommunikativ madaniyati va individual yondashuvga tayyorligi ta’lim samaradorligini belgilovchi muhim omildir.

Mamlakatimizda inklyuziv ta’limni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilanmoqda. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunida ilk bor inklyuziv ta’lim tushunchasining alohida modda sifatida kiritilishi, alohida ta’lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta’lim oluvchilar uchun teng imkoniyatlar yaratish zarurligining belgilanishi bu sohadagi huquqiy asoslarning mustahkamlanayotganini ko‘rsatadi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida har kimning ta’lim olish huquqiga ega ekanligi, alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bolalar uchun inklyuziv ta’lim va tarbiya ta’minlanishi qayd etilgan. Bu talablar boshlang‘ich ta’lim tizimi uchun ham bevosita ahamiyatlidir, chunki alohida ehtiyojli bolalar umumiy ta’lim muhitiga ko‘pincha aynan boshlang‘ich sinflardan boshlab kirib keladilar.

Adabiyotlar tahlili. Inklyuziv ta’limning mavjud holatini tahlil qilishda uning davlat siyosati sifatida shakllanayotganiga e’tibor qaratish zarur. Inklyuziv ta’lim “nogiron yoki boshqa sabablar tufayli maxsus yordamga muhtoj bolalar uchun moslashuvchan va individuallashgan yordam tizimi hamda barcha bolalarni teng ko‘rishni ko‘zda tutadigan ta’lim turi” sifatida talqin qilinadi. Bu ta’rif bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi faoliyati uchun muhim metodologik asos yaratadi. Chunki boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi har bir bolaning jismoniy, aqliy, sensor, ruhiy, nutqiy va ijtimoiy xususiyatlarini hisobga olib, dars mazmuni, metodlari, topshiriqlari va baholash shakllarini moslashtira olishi kerak.

Mavjud holatda inklyuziv ta’limni rivojlantirish bo‘yicha qator ustuvor vazifalar belgilangan. Ular ta’lim muassasalari binolariga qo‘yiladigan talablarni ishlab chiqish, zarur adabiyotlar va o‘quv qurollari bilan ta’minlash, moddiy-texnik bazani mustahkamlash, maxsus asbob-uskunalar, panduslar, moslashtirilgan jihozlar, psixologik-pedagogik kuzatuv mutaxassislari va maxsus pedagoglar faoliyatini yo‘lga qo‘yish kabi yo‘nalishlarni qamrab oladi. Bu vazifalar bevosita bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining tayyorgarligiga ham taalluqlidir. Chunki maxsus sharoit mavjud bo‘lgan taqdirda ham, agar o‘qituvchi ushbu sharoitdan pedagogik maqsadda foydalana olmasa, inklyuziv ta’lim to‘laqonli amalga oshmaydi.

Metodologiya. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining inklyuziv ta’limga tayyorligi faqat nazariy bilimlar bilan cheklanmaydi. U alohida ta’lim ehtiyojiga ega o‘quvchilarning psixologik-pedagogik xususiyatlarini bilishi, ularni sog‘lom tengdoshlari bilan birgalikda o‘qitish yo‘llarini egallashi, dars jarayonida to‘siqsiz muhit yaratishi, maxsus vosita va metodlardan foydalana olishi, ota-onalar hamda mutaxassislar bilan hamkorlikda ishlashi lozim. Inklyuziv ta’limning maqsadi alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilar uchun maktabda maxsus vosita va metodlarni qo‘llash, maxsus pedagoglarni jalb etish, to‘siqsiz moslashtirilgan ta’lim muhitini yaratish, ularning jamiyatga samarali moslashuvi hamda sifatli ta’lim olishini ta’minlash bilan bog‘liq holda yoritilgan. Bu fikr boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining tayyorgarligini baholashda asosiy mezonlardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Boshlang‘ich ta’limda inklyuziv yondashuvning alohida ahamiyatga ega bo‘lishi kichik maktab yoshidagi bolalarning psixologik xususiyatlari bilan bog‘liq. Birinchi sinfga kelgan har bir o‘quvchida psixik zo‘riqish kuchayishi, bu holat jismoniy salomatlikda, xatti-harakatda, qo‘rquvning ortishida, irodaviy faollikning susayishida namoyon bo‘lishi qayd etiladi. Bunday holatlar alohida ta’lim ehtiyojiga ega bolalarda yanada murakkabroq kechishi mumkin. Shu sababli bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi maktabga moslashuv davrida o‘quvchilarning emotsional holatini kuzatishi, ularni qo‘llab-quvvatlashi, sinfda ishonchli va xavfsiz muhit yaratishi, bolaning imkoniyatidan kelib chiqib topshiriq berishi zarur. Mavjud holatda alohida ta’lim ehtiyojiga ega bolalar guruhlari turlicha bo‘lib, ularning har biri o‘qituvchidan maxsus yondashuvni talab qiladi. Inklyuziv ta’lim sinflari va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflarga eshitishda nuqsoni bo‘lgan, ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan, somatik kasalliklarga ega, nutqida og‘ir nuqsonlari mavjud, tayanch-harakat apparatida kamchiligi bo‘lgan, ruhiy rivojlanishida sustlik kuzatilgan, autistik spektr buzilishlari mavjud, intellektual rivojlanishi saqlangan holda tutqanoq holatlari kuzatiladigan bolalar qabul qilinishi mumkinligi ko‘rsatiladi. Ushbu tasnif bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisidan turli ehtiyojlarga ega bolalar bilan ishlash bo‘yicha kamida boshlang‘ich darajadagi maxsus pedagogik, psixologik va metodik bilimga ega bo‘lishni talab etadi.

Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bola bilan ishlashda o‘qituvchi dars materiallarini yirik shrift, rang kontrasti, audio izoh, predmetli ko‘rgazma va sezgi orqali idrok etishga moslashtirishi kerak. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchi uchun yozma ko‘rsatmalar, mimika, imo-ishora, vizual jadval va ko‘rgazmali vositalar muhim ahamiyatga ega. Nutqida kamchiligi bo‘lgan bola uchun javob berishga ko‘proq vaqt ajratish, og‘zaki javobni rasm, belgilar yoki qisqa yozma ifoda bilan almashtirish imkonini yaratish lozim. Tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchi uchun sinf jihozlarini qulay joylashtirish, harakatlanish xavfsizligini ta’minlash, yozma topshiriqlarning hajmini moslashtirish talab etiladi. Autistik spektr buzilishlari mavjud bola uchun dars tartibini oldindan ma’lum qilish, keskin o‘zgarishlarni kamaytirish, aniq va qisqa ko‘rsatmalar berish, hissiy ortiqcha yuklamalardan himoya qilish muhim sanaladi. Bunday amaliy misollar talabaning inklyuziv ta’limni faqat umumiy tushuncha sifatida emas, balki aniq pedagogik vaziyatlarda qo‘llaniladigan faoliyat turi sifatida anglashiga yordam beradi.

Asosiy qism va mavzuning ilmiy tahlili. Hozirgi holatda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining inklyuziv ta’lim bo‘yicha tayyorgarligida nazariy bilim va amaliy malaka o‘rtasida uzviylik yetarli emasligi seziladi. Talabalar inklyuziv ta’lim tushunchasi, uning maqsadi, vazifalari, huquqiy asoslari haqida ma’lumotga ega bo‘lishlari mumkin, biroq real dars jarayonida alohida ehtiyojli o‘quvchining ishtirokini qanday tashkil etish, darsni qanday moslashtirish, baholashda qaysi mezonlardan foydalanish, sinfdoshlar o‘rtasida ijobiy munosabatni qanday shakllantirish masalalarida qiyinchilikka duch keladilar. Shu jihatdan pedagogik oliy ta’limda inklyuziv ta’lim mazmunini boshlang‘ich ta’lim metodikasi fanlari bilan bog‘liq holda o‘qitish zarurati kuchaymoqda. (1.3-jadvalga qarang). Inklyuziv ta’lim vazifalari sifatida har qanday kamsitishni istisno qiladigan yagona moslashtirilgan ijtimoiy muhit yaratish, ta’lim jarayoni ishtirokchilarida bag‘rikenglik munosabatini shakllantirish, sog‘lom bolalar bilan bir qatorda alohida ehtiyojli bolalarning aqliy va ijtimoiy salohiyatini rivojlantirish, barcha o‘quvchilar uchun davlat ta’lim standartlariga muvofiq ta’lim dasturlarini o‘zlashtirish imkoniyatini yaratish, ota-onalarni psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash kabi masalalar belgilangan.

“1.3-jadval.”

Alohida ta’lim ehtiyojiga ega o‘quvchilar bilan ishlashda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining tayyorgarlik holati va metodik yechimlar

№	O‘quvchilar toifasi	O‘qituvchidan talab etiladigan tayyorgarlik	Mavjud holatdagi qiyinchilik	Amaliy-metodik yechimlar
1.	Eshitishda nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilar	Vizual ko‘rsatmalar, yozma topshiriqlar, mimika, imo-ishora, ko‘rgazmali vositalardan foydalanish	Bo‘lajak o‘qituvchilar eshitishida muammosi bo‘lgan bolaga og‘zaki tushuntirishning o‘zi yetarli emasligini har doim ham hisobga olmaydilar	Darsda yozma ko‘rsatma, rasmli jadval, predmetli ko‘rgazma, qisqa va aniq topshiriqlar, subtitrli videolardan foydalanish
2.	Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilar	Yirik shrift, kontrast rang, audio material, predmetli ko‘rgazma, sezgi orqali idrok etishga mos topshiriqlar tayyorlash	Talabalar ko‘rishida qiyinchiligi bo‘lgan o‘quvchi uchun matn, rasm, jadval va yozma topshiriqlarni moslashtirishda tajribaga ega emas	Audio izohli materiallar, yirik shriftli matnlar, qo‘l bilan ushlab ko‘riladigan predmetlar, qisqa topshiriqlar va og‘zaki baholashdan foydalanish
3.	Nutqida og‘ir nuqsonlari bo‘lgan o‘quvchilar	Javob berish uchun qo‘shimcha vaqt ajratish, rasm, belgi, kartochka va qisqa yozma ifodalar orqali muloqotni tashkil etish	Nutqiy nuqsoni bo‘lgan o‘quvchini tez-tez og‘zaki javobga majburlash unda tortinchoqlik va muloqotdan qochish holatini kuchaytirishi mumkin	Javobni rasmli kartochka, yozma belgi, juftlikda ishlash, oldindan tayyorgarlik va logoped tavsiyasi asosida tashkil etish
4.	Tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilar	Sinf jihozlarini qulay joylashtirish, harakatlanish xavfsizligini ta’minlash, yozma va amaliy topshiriqlar hajmini moslashtirish	Sinf muhiti, partalar joylashuvi, doskaga chiqish, jismoniy faoliyat va amaliy topshiriqlar barcha bolalar uchun bir xil tashkil etiladi	Harakatlanish yo‘laklarini ochiq qoldirish, doskaga chiqmasdan javob berish, topshiriq hajmini moslashtirish, yordamchi vositalardan foydalanish
5.	Ruhiy rivojlanishida sustlik kuzatilgan o‘quvchilar	Oddiy, bosqichli, takroriy va ko‘rgazmali topshiriqlar orqali o‘qitish	Talabalar bunday o‘quvchilar uchun mavzuni kichik qismlarga ajratish, takrorlash va qo‘shimcha vaqt berish zaruratini yetarli anglamaydilar	Qisqa ko‘rsatmalar, namunaga qarab bajarish, ko‘p bosqichli topshiriq, ko‘rgazmali tayanch, rag‘batlantirish va individual yordamdan foydalanish
6.	Autistik spektr buzilishlari mavjud o‘quvchilar	Aniq tartib, oldindan rejalashtirilgan faoliyat, qisqa ko‘rsatma, hissiy ortiqcha yuklamani kamaytirish	Kutilmagan o‘zgarishlar, shovqin, murakkab topshiriqlar va noaniq ko‘rsatmalar bolaning xavotirini kuchaytirishi mumkin	Vizual kun tartibi, aniq qoidalar, tinch joy, qisqa topshiriqlar, oldindan ogohlantirish va individual qo‘llab-quvvatlashdan foydalanish
7.	Somatik kasalliklarga ega o‘quvchilar	O‘quvchining sog‘lig‘i, charchash darajasi, jismoniy yuklama va darsdagi ishtirokini hisobga olish	Dars jarayonida bolaning sog‘lig‘i bilan bog‘liq cheklovlar har doim ham inobatga olinmaydi	Dam olish daqiqalari, yengil topshiriqlar, shifokor tavsiyalariga mos faoliyat, ortiqcha jismoniy va emotsional yuklamani

№	O‘quvchilar toifasi	O‘qituvchidan talab etiladigan tayyorgarlik	Mavjud holatdagi qiyinchilik	Amaliy-metodik yechimlar
				kamaytirish
8.	Intellektual imkoniyati saqlangan, ammo o‘zlashtirishda qiyinchilikka ega o‘quvchilar	Individual tezlikda ishlash, mavzuni soddalashtirish, ko‘rgazmali va amaliy metodlardan foydalanish	Barcha o‘quvchilardan bir xil tezlikda va bir xil hajmda natija talab qilinishi bunday bolalarning imkoniyatini cheklaydi	Differensial topshiriqlar, qo‘shimcha vaqt, qisqa izoh, amaliy mashqlar, og‘zaki va vizual javob shakllaridan foydalanish
9.	Tutqanoq holati kuzatiladigan o‘quvchilar	Xavfsiz muhit yaratish, o‘quvchining holatini kuzatish, favqulodda vaziyatda to‘g‘ri harakat qilish	Bo‘lajak o‘qituvchilar bunday o‘quvchilarda kutilmagan holat yuz berganda qanday pedagogik va tashkiliy choralar ko‘rishni yetarli bilmasliklari mumkin	Sog‘liq bo‘yicha tavsiyalar bilan tanishish, ota-ona va tibbiyot xodimi bilan aloqa o‘rnatish, sinfda xavfsiz harakatlanish tartibini belgilash
10.	Turli ehtiyojga ega o‘quvchilar qatnashadigan inklyuziv sinf	Barcha bolalar uchun qulay, moslashuvchan, kamsitishdan xoli va hamkorlikka asoslangan ta’lim muhitini yaratish	Bo‘lajak o‘qituvchilar turli ehtiyojlarni bir vaqtning o‘zida hisobga olib darsni tashkil etishda qiyinchilikka duch keladilar	Universal dizayn, guruhli ish, juftlikda ishlash, ko‘p shaklli taqdimot, moslashtirilgan baholash va ijtimoiy hamkorlik metodlarini qo‘llash

Bu vazifalarning har biri bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi tayyorgarligida alohida o‘rin egallashi kerak.

Muhokama. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi ta’lim jarayonida sog‘lom bolalar va alohida ehtiyojli o‘quvchilarni bir-biridan ajratmasdan, ularning hamkorlikdagi faoliyatini tashkil eta olishi lozim. Sinfda o‘zaro yordam, sheriklik, hurmat, bag‘rikenglik va qo‘llab-quvvatlash muhitini yaratish inklyuziv ta’limning muhim shartidir. Masalan, o‘qish darsida zaif ko‘ruvchi bola matnni tinglash orqali o‘zlashtirsa, boshqa o‘quvchi unga matnni ovoz chiqarib o‘qib berishi mumkin; matematika darsida harakatlanishida cheklovi bo‘lgan bola doskaga chiqmasdan turib, kartochka yoki og‘zaki javob orqali faol ishtirok etadi; tarbiya darsida sinf jamoasi “barchamiz har xil bo‘lsak ham, bir jamoamiz” degan g‘oya asosida muhokama yuritadi. Bunday yondashuv o‘quvchilar o‘rtasidagi ijtimoiy masofani kamaytiradi va alohida ehtiyojli bolani sinf hayotining tabiiy ishtirokchisiga aylantiradi. Inklyuziv ta’limning mavjud holatini o‘rganishda “integratsiya” va “inklyuziya” tushunchalarining farqini aniqlashtirish ham muhimdir. Integratsiya maxsus ehtiyojli bolani oddiy maktab sharoitiga joylashtirish bilan bog‘liq jarayon sifatida izohlanadi. Inklyuziv ta’lim esa faqat bolaning maktabga kelib-ketishini ta’minlash bilan chegaralanmaydi, balki maktab muhitini bolaning ehtiyojlariga moslashtirishni, ta’lim mazmuni, metodlari, vositalari va munosabatlar tizimini qayta tashkil etishni talab qiladi. Bunda bola ta’lim tizimiga moslashishga majbur qilinmaydi, aksincha, ta’lim jarayoni bolaning individual imkoniyatlari, rivojlanish sur’ati va ehtiyojlariga moslashtiriladi.

Natija. Ushbu farq bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarligida alohida ahamiyat kasb etadi. Agar talaba inklyuziv ta’limni faqat alohida ehtiyojli bolani umumiy sinfga joylashtirish deb tushunsa, u bolaning real ta’limiy ehtiyojlarini e’tibordan chetda qoldirishi mumkin. Agar u inklyuziv ta’limni moslashuvchan pedagogik tizim sifatida anglasa, har bir darsni o‘quvchilarning imkoniyatlariga qarab loyihalaydi. Masalan, bir mavzuni tushuntirishda og‘zaki bayon, rasm, predmetli tajriba, harakatli topshiriq va juftlikda ishlash kabi turli shakllardan foydalanadi. Bu usul nafaqat alohida ehtiyojli bolaga, balki sinfdagi barcha o‘quvchilarga qulay ta’lim muhitini yaratadi.

Mavjud holatda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashda imkoniyati cheklangan bolalar turlari, ularning rivojlanish xususiyatlari va dars jarayonida qo‘llaniladigan pedagogik yondashuvlar yetarli darajada amaliy mashg‘ulotlar orqali mustahkamlanishi lozim. Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan, eshitishida kamchiligi mavjud, aqliy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan, nutqiy kamchiliklari bor, tayanch-harakat a’zolarida muammolari mavjud, ruhiy rivojlanishi sust, murakkab nuqsonli hamda autizm sindromiga chalingan bolalar toifalari alohida ko‘rsatilgan.

Ta’lim amaliyotida uchraydigan muammolardan biri umumta’lim maktabi o‘qituvchisining maxsus metodikani yetarli bilmasligi bilan bog‘liq. Integratsiyalashgan ta’limning chegaralangan tomonlari sifatida umumta’lim muassasalarida kompleks tibbiy-pedagogik yordam olish imkoniyatining cheklangani, pedagoglarning maxsus metodikani yetarli egallamagani, tiflo va surdotexnik vositalarning yetishmasligi, sinfda o‘quvchilar sonining ko‘pligi, maxsus malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish uchun mutaxassislarning kamligi, alohida dastur va darsliklardan foydalanish imkoniyatining sustligi ko‘rsatiladi. Bu holat bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashda faqat umumiy pedagogik bilimlar bilan cheklanmaslik, maxsus pedagogika, psixologiya, logopediya, korreksion pedagogika va assistiv texnologiyalar bo‘yicha zarur bilimlarni integratsiyalash zarurligini ko‘rsatadi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun inklyuziv ta’limga tayyorgarlik mazmunida metodik moslashtirish alohida o‘rin tutadi. Dars jarayonida topshiriq hajmini kamaytirish, vaqtni uzaytirish, og‘zaki javobni rasmli javob bilan almashtirish, yozma ishni og‘zaki ifoda bilan baholash, o‘quv materialini turli shakllarda berish, o‘quvchini juftlik yoki kichik guruhda ishlashga jalb etish, vizual jadvaldan foydalanish, darsning har bir bosqichini aniq belgilash kabi metodlar talabalarga amaliy tarzda o‘rgatilishi kerak. Bu jarayon ma’ruza orqali emas, balki keys, trening, simulyatsion dars, videodars tahlili, pedagogik vaziyatni modellashtirish va amaliyot jarayonidagi kuzatuvlar orqali samaraliroq shakllanadi.

Inklyuziv ta’lim sharoitida o‘qituvchi ota-onalar bilan hamkorlik qilishga ham tayyor bo‘lishi zarur. Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga maslahat yordami berish, ota-onalarning pedagogik texnologiyalar,

ta'lim-tarbiya metodlari va vositalaridan foydalanish bo'yicha xabardorligini oshirish, ularni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash muhim vazifa sifatida qayd etilgan. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi ota-onaga bolaning qiyinchiligini aytish bilan cheklanmasdan, uyda bajarilishi mumkin bo'lgan yengil mashqlar, muloqot usullari, rag'batlantirish shakllari va kun tartibi bo'yicha aniq tavsiyalar bera olishi kerak.

Xulosa. Bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ tayyorgarligi ham kuchaytirishga muhtoj. Inklyuziv sinfda o'qituvchi bolani, ota-onani, psixologni, defektologni, logopedni va sinf jamoasini yagona pedagogik maqsad atrofida birlashtiradi. Bunday hamkorlikda noto'g'ri muloqot bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini pasaytirishi, ota-onada norozilik uyg'otishi yoki sinfdagi ijtimoiy muhitga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga pedagogik muloqot etikasi, ota-onalar bilan suhbat olib borish, mutaxassis tavsiyasini dars jarayoniga kiritish, tengdoshlar o'rtasida hamkorlik muhitini yaratish bo'yicha maxsus mashg'ulotlar tashkil etilishi lozim.

Inklyuziv ta'limni amalga oshirishda raqamli va yordamchi texnologiyalardan foydalanish ham mavjud holatning muhim ko'rsatkichidir. Ko'rishida qiyinchiligi bo'lgan o'quvchi uchun audio materiallar, yirik shriftli matnlar, kontrast ranglar; eshitishida muammosi bo'lgan bola uchun subtitrli videolar, yozma ko'rsatmalar, vizual sxemalar; nutqiy qiyinchilikka ega o'quvchi uchun piktogrammalar, rasmli javob kartochkalari; diqqatni jamlashda qiynaladigan bola uchun qisqa interaktiv topshiriqlar samarali yordamchi vositalar bo'la oladi. Talabalarga bunday resurslarni tayyorlash va dars jarayonida qo'llash ko'nikmasini berish inklyuziv kompetentlikning muhim tarkibiy qismidir. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining inklyuziv ta'limga tayyorligini rivojlantirishda baholash mezonlari ham aniq belgilanishi kerak. Talabaning faqat nazariy savollarga javob berishi uning inklyuziv sinfda ishlashga tayyorligini to'liq ko'rsatmaydi. Tayyorlikni aniqlashda uning alohida ehtiyojli bolalar toifalarini bilishi, darsni moslashtira olishi, individual topshiriq ishlab chiqishi, o'quvchi faoliyatini adolatli baholashi, ota-onalar bilan ishlay olishi, raqamli resursdan foydalanishi va o'z faoliyatini tahlil qila olishi hisobga olinishi lozim. Bu jarayonda portfolio, amaliy dars, keys tahlili, kuzatuv varaqasi, refleksiv esse va suhbat kabi vositalardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF- 4947-son Farmoni. – Toshkent, 2017-yil 7-fevral.

[2] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi 2017-yil 15-martdagi 140-son qarori. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" gi 2017-yil 6-aprel, 187-sonli qarori. Elektron manba: www.lex.uz/doks/

[3] Madatov I.Y Inklyuziv ta'lim. Darslik. – Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali, 2024.

[4] Goipova N.B Inklyziv ta'lim. Gospital pedagogika. Darslik.– Namangan, 2024.

[5] Kaxarova D.S.Inklyuziv ta'limni takomillashtirish. O'quv qo'llanma.– Buxoro, 2021.

[6] Qodirova F.U, Pulatova D.A Inklyuziv ta'lim. Darslik.– Toshkent, 2024.

[7] Mokhirovna, T.N. (2024). Issues of Adapting Children with Disabilities to General Schools. American Journal of Education and Evaluation Studies, 1(9), 434–436.